**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ASTANOV AXUNJAN RAUBOVICH

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING SIYOSIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI (HOKIM YORDAMCHILARI MISOLIDA)

23.00.03. – Siyosiy madaniyat va mafkura

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

UO‘K:35.08:352:316.7(575.1)

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам

Contents of dissertation abstract
of the Doctor of philosophy (PhD) in political sciences

Astanov Axunjon Raubovich
O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari (hokim yordamchilari misolida)……..…...3

Астанов Ахунжон Раубович
Механизмы повышения политической культуры государственных гражданских служащих в Узбекистане (на примере помощников хокима)....24

Astanov Akhunjon Raubovich
Mechanisms for Improving the Political Culture of State Civil Servants in Uzbekistan (using the example of assistants to the khakim).....……50

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….55

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ASTANOV AXUNJON RAUBOVICH

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING SIYOSIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI (HOKIM YORDAMCHILARI MISOLIDA)

23.00.03. – Siyosiy madaniyat va mafkura

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent–2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ss467 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Bo‘tayev Usmon Xayrullayevich** siyosiy fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedov Xusniddin Aliqulovich** siyosiy fanlar doktori, professor
	Alimardonov To‘lqin Turdiyevich siyosiy fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «12» noyabr soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 106-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71, faks: (99871) 246-02-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «____» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.G.Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

G.T.Isanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

B.A.Omonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonining tobora kengayib borishi, turli darajadagi va turlicha manfaatlarni maqsad qilgan siyosiy raqobatning kuchayishi sharoitida mahalliy va hududiy davlat boshqaruvida yuksak siyosiy madaniyatga ega, siyosiy voqelikka mos munosabatli hamda siyosiy xulq-atvorga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash zaruratining ahamiyati oshib bormoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish sharoitida siyosiy hokimiyat institutlarining institutsional salohiyatini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda davlatning ustuvor maqsadlari va milliy manfaatlarini siyosiy jihatdan chuqur anglay oladigan, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega davlat xizmatchilarini tayyorlash hamda ularni tanlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Dunyoning yirik siyosiy tadqiqot markazlarida davlat boshqaruvini optimallashtirish, davlat fuqarolik xizmatining samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini tezkor va sifatli tashkil etish hamda ma’muriy yuklamalarni maqbullashtirish zamonaviy davlat boshqaruvi islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy ongi, kasbiy kompetensiyasi va institutsional mas’uliyatini rivojlantirish, ularning bilim, malaka, siyosiy e’tiqod hamda davlat manfaatlariga sadoqatini uzluksiz mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, jahonda davlat fuqarolik xizmatchilarining bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda keyingi o‘n yillik davomida davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Mazkur islohotlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, professional davlat xizmatini shakllantirish hamda boshqaruv tizimining ochiqligi va natijadorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”[1], deya izohlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdagi (2023-yil 1-maydagi yangi tahriri), 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son qonun, 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-sonli, 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli, 2025-yil 19-iyundagi PF-95-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi VMQ-595-son qaror hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga muayyan darajada hissa qo‘shadi.

[1] URL: https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”ning ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nufuzli xalqaro reyting va indekslarda davlat xizmati, hukumat samaradorligini baholashga ustuvor ahamiyat qaratiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan faol islohotlar natijasida mamlakatimiz “Hukumat samaradorligi” reytingida 2025-yilda 81,9% (2024-yilda 72% 133-o‘rin) natija bilan 203 mamlakat ichida 105-o‘rinni egallaganligi islohotlarning amaliy ifodasini ko‘rsatadi[2].

Davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini shakllantirishga oid masalalarini o‘rganishda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va chiqishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlat boshqaruvi, boshqaruv madaniyati hamda boshqaruvchining siyosiy madaniyati va uni takomillashtirishga oid qarashlar o‘zbek davlatchiligining ilk davrlaridan boshlanib, Sharq va G‘arb xalqlari tarixida muhim tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Jumladan “Avesto”da ham davlatni boshqarish, jamiyatda tartib-intizomni ta’minlash, rahbarning axloqiy fazilatlari hamda xalq manfaatini himoya qilishga oid ilg‘or g‘oyalar bayon etilgan, shuningdek, bu boradagi qarashlar buyuk arboblar, alloma hamda mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy[3] asarlari orqali ham davlat fuqarolik xizmatchilariga oid qarashlar keng miqyosda o‘rganilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining samaradorligini oshirishda siyosiy madaniyatni yuksaltirish mexanizmlarini joriy etish yo‘nalishida tadqiqot olib borgan xorijiy olimlardan: George Boyne, Christoph Demmke, Christoph Reichard, Eckhard Schroter, Styuart Gilman, Jerald Gaiden, Nejonze Zonze, Bob Johansen, Lorenzo Bordogna, Stefano Neri, Callie Wilkinson, Jessica Breaugh, Gerhard Hammerschmid, Haksoo Lee[4] va boshqalarning ishlarini ko‘rsatish mumkin.

MDH mamlakatlarida davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari, ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan institutsional muammolar hamda ularni siyosiy boshqaruv nuqtai nazaridan bartaraf etish yo‘llari qator tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, I.Gaziyeva, D.Baxrax, Y.Kozlov, A.Obolonskiy, D.Ovsyanko, A.Rizayev, D.Salikov, Y.Starilov, B.Kapustin, K.Gadjiyev, M.Blyum, B.Gerasimov, N.Molotkova[5] kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari haqida olimlarning qarashlari ko‘p qirrali va amaliy yondashuvlarga asoslanadi. Bu mavzuda olimlar davlat xizmatining samaradorligi, xizmatchilarning professional va axloqiy saviyasi, shuningdek, ularning siyosiy jarayonlardagi roliga alohida e’tibor berishadi A.Muminov, Sh.Paxrutdinov,

[2] URL: https://historysaid.com/ranking/government-effectiveness/2025
[3] Mazkur allomalarning asarlari “Dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.
[4] Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da keltirilgan.
[5] Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da keltirilgan.

N.Jo‘rayev, I.Ergashev, Q.Quranbayev, T.Alimardonov, X.Odilqoriyev, SH.G‘oyibnazarov, B.Tuychiyev, S.Jo‘rayev, M.Qirg‘izboyev, B.Omonov, H.Ahmedov, U.Butayev va N.Umarovalar tomonidan siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilganini qayd etish lozim. Davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari sotsiologiya fanlari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda, xususan M.Bekmurodov, S.Otamuratov, SH.Sodiqovalarning doktorlik dissertatsiyalarida ham o‘rganilgan[6].

O‘zbekistonda ham davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga oid tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Y.Ernazarova, F.Ravshanov, K.Mirzaaxmedov, M.Atamuratov, A.Yuldashev, A.Jalilov, O.Xasanov, G.Sa’diyeva, B.Abdullayev, J.Yusupov, J.Mirzavaliyev, huquqshunos olimlar O.Xusanov, X.Azizov, X.Xayitov, N.Said-Gaziyeva, Sh.Asadov, F.Yuldasheva, D.Raximov, Z.Rahmanov[7]lar davlat fuqarolik fuqarolik xizmatchilari samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining mushtarakligi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat fuqarolik xizmatida hokim yordamchisining siyosiy madaniyatini yuksaltiruvchi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish orqali mavjud mexanizmlarni takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat fuqarolik xizmati institutini tadqiq etishning nazariy-metodologik jihatlarini yoritish;

davlat fuqarolik xizmatchilari siyosiy madaniyatiga doir Sharq mutafakkirlari ta’limotlarining nazariy tahlilining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish;

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatining siyosiy va huquqiy asoslarini tahlil qilish;

Yangi O‘zbekistonda hokim yordamchilari institutining shakllanishi va hokim yordamchilarida siyosiy ong va siyosiy madaniyatning rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib berish;

hokim yordamchilarini tayyorlash va siyosiy madaniyatini yuksaltirishga oid xorij tajribasini o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘llarini ilmiy asoslash;

davlat fuqarolik xizmatida hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini baholash mezonlarini takomillashtirishning innovatsion yechimlarini ishlab chiqish;

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida davlat fuqarolik xizmatidagi hokim yordamchilarining siyosiy madaniyatini doimiy baholash mezonlarini takomillashtirishning innovatsion yechimlari ishlab chiqish hamda ushbu baholash mezonlarini amaliyotda tatbiq etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

[6] Dissertatsiyada ushbu mualliflarning tadqiqotlaridan unumli foydalanilgan.
[7] Dissertatsiyada ushbu mualliflarning tadqiqotlaridan unumli foydalanilgan.

Tadqiqotning obyekti Davlat fuqarolik xizmatidagi hokim yordamchilarining faoliyati.

Tadqiqotning predmetini davlat fuqarolik xizmatida hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid konseptual yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik, siyosiy tahlil, modellashtirish, prognozlash usullari tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida bixevioristik, tizimli va funksional yondashuvlardan foydalanilib, muammoning nazariy hamda amaliy jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahallalardagi hokim yordamchilarining funksional vazifalari professionallik va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusining me’yoriy-huquqiy asoslanganligini inobatga olib, hokim yordamchisi lavozimini davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga yordamchi kadrlari lavozim toifasiga kiritish ilmiy jihatdan dalillangan;

davlat xizmatchilarining o‘z faoliyatida halol, adolatli, kamtar, xushmuomala, vazmin va samimiy bo‘lishi, shuningdek, aholining davlat xizmatlari iste’molchisi sifatidagi talablariga muvofiq doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirib borish choralarini ko‘rishi siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari manfaatlari yo‘lida xizmat mavqeyi va imkoniyatlaridan foydalanmasligi asoslangan;

hokim yordamchilari faoliyatidan kelib chiqib ularni rag‘batlantirish yoki mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish hokim yordamchilarining siyosiy mas’uliyatni oshirishda ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ularning axborotlarini eshitish va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha xalq deputatlari tuman va shahar Kengashiga hisobot berib borish muhimligi ochib berilgan;

Yangi O‘zbekistonda hokim yordamchilarini kelajak liderlari sifatida shakllantirish uchun ularda siyosiy madaniyatini rivojlantiruvchi “siyosiy e’tiqod, siyosiy immunitet va siyosiy faollik” kabi omillar siyosiy madaniyatni oshirish mexanizmi barqaror taraqqiyot mezoni ekanligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini takomillashtirish masalasi Sharq mutafakkirlarining davlat boshqaruvi, adolatli hokimiyat, siyosiy-axloqiy fazilatlar va rahbarlik madaniyatiga oid ilmiy-falsafiy qarashlari xususan, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida davlat fuqarolik xizmatining siyosiy va huquqiy asoslari nazariy tahlil qilingan;

Yangi O‘zbekistonda hokim yordamchilari institutining shaklanish va rivojlanish bosqichlari qiyosiy tahlil qilinib, hokim yordamchilarining siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlarining tashkiliy va tarkibiy qismlari siyosiy tahlil qilingan;

hokim yordamchilarini tayyorlash va ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirishga oid xorijning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning yo‘llari ko‘rsatib berilgan;

Davlat fuqarolik xizmatida hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini baholash mezonlarini takomillashtirishga doir innovatsion yechimlar ishlab chiqilgan hamda

Yangi O‘zbekistonda hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan metodologik yondashuv va ilmiy tadqiqot usullarining maqsadga muvofiqligi, tahlillarning ishonchli hamda rasmiy manbalarga asoslanganligi, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani, avvalo, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgani va tasdiqlangani bilan ta’minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy ahamiyati davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, hududiy va mahalliy davlat boshqaruvidagi hokim yordamchilarini barcha islohotlarining to‘laqonli ishtirokchisi bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirishga ilmiy yondashuvni qo‘llashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalardan 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategik dasturida belgilangan nazariy va amaliy vazifalarni amalga oshirishda, davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishning huquqiy, siyosiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishda, davlat xizmatchilarining siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlarni olib borishda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida davlat boshqaruvi va davlat fuqarolik xizmatiga ixtisoslashgan fanlarni o‘qitish hamda mazkur yo‘nalish bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash jarayonida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

mahallalardagi hokim yordamchilarining funksional vazifalari xususiyatini inobatga olib, hokim yordamchisi lavozimini davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga yordamchi kadrlari lavozim toifasiga kiritish zarurati borasidagi amaliy taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–95-sonli Farmoni loyihasining 5-ilovasini “Respublika, hududiy va tuman, shahar darajasidagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi samaradorligi agentligining 2025-yil 03-noyabrdagi 01-1886-son dalolatnomasi). Natijada, hokim yordamchilari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri joriy qilingan;

davlat xizmatchilarining o‘z faoliyatida halol, adolatli, kamtar, xushmuomala, vazmin va samimiy bo‘lishi, shuningdek, aholining davlat xizmatlari iste’molchisi sifatidagi talablariga muvofiq doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirib borish choralarini ko‘rishi siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari manfaatlari yo‘lida xizmat mavqeyi va imkoniyatlaridan foydalanmasligi lozimligi haqidagi taklif Vazirlar Mahkamasining 2022-yil

14-oktyabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarining 7-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-apreldagi 29-son dalolatnomasi). Natijada, davlat fuqarolik xizmatchilarining doimiy ravishda yuksak kasbiy madaniyatini shakllantirishi, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo‘lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarining oldini olishga xizmat qiladi;

Yangi O‘zbekistonda hokim yordamchilarini kelajak liderlari sifatida shakllantirish uchun ularda siyosiy madaniyatini rivojlantiruvchi “siyosiy e’tiqod, siyosiy immunitet va siyosiy faollik” kabi omillar siyosiy madaniyatni oshirish mexanizmining tarkibiy qismiga aylanganligi borasidagi taklif va tavsiyalaridan Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan 2024-yilda o‘tkazilgan “Yoshlar siyosati sohasidagi loyihalar samaradorligi va ulardan yoshlarning qoniqish darajasini o‘rganish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot tahliliy ma’lumotlari va xulosalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 2025-yil 08-noyabrdagi 01-02-06/162-son dalolatnomasi). Natijada, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 2025-yildagi chora-tadbirlar rejasiga Davlat fuqarolik xizmatchilarining bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish bo‘yicha manzilli o‘quv kurslari, trening va seminarlar yangi mavsumini tashkil etish bandlari kiritildi. Ushbu qo‘shimcha bandlar yosh xizmatchilarning siyosiy e’tiqod, siyosiy immunitet va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarini tashkil qilishga xizmat qilgan.

hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilgan ishlar samaradorligi va amaliy natijalaridan kelib chiqib ularni rag‘batlantirish yoki mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish hokim yordamchilarining siyosiy mas’uliyatni oshirishda ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ularning axborotlarini eshitish va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha xalq deputatlari tuman va shahar Kengashiga hisobot berib borish zarurligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman, shahar hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 450-sonli qarorining 4-bobidagi konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlarining 8-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-apreldagi 29-son dalolatnomasi). Natijada, hokim yordamchilarining mas’uliyatning oshirish hamda ular faoliyatidagi xato va kamchiliklarni kamaytirib, ularning ishida ijtimoiy adolat va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarda jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda, ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlarida 20 ta maqola, jumladan 10 tasi xalqaro konferensiyalarda, 10 tasi mahalliy konferensiyalarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib asosiy hajmi 145 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini o‘rganishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “davlat xizmati” va “davlat fuqarolik xizmati”ning mazmun-mohiyati hamda davlat xizmatchisi faoliyatini tashkil etish va tartibga solishning siyosiy-huquqiy asoslari to‘g‘risida so‘z yuritilib, “davlat xizmatchisining siyosiy madaniyati” tushunchasiga siyosatshunoslik fani nuqtai nazaridan aniqlik kiritiladi. Sababi davlat xizmati ilmiy-adabiyotlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligida keng qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga nafaqat davlat fuqarolik xizmatini, balki maxsus xizmat, siyosiy xizmat, kadr kabi tushunchalarni qamrab oladi. Bu esa, bevosita mavzuga taalluqli bo‘lgan boshqa kategoriyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotni umumiylikdan xususiylikka qarab tahlil etish imkonini yaratib beradi. Bunda davlat xizmati tushunchasi va mohiyatining kelib chiqishi, soha bo‘yicha milliy va xorijlik mutafakkir va olimlarning qarashlari, davlat xizmatiga oid nazariyalar tahlil qilinishi tadqiqotda asosli takliflar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Ingliz olimi J.Boyn izohli lug‘atlarda “Public service” tushunchasi ikki xil ma’noda qo‘llanilishini aytadi. Birinchi holat davlatning fuqarolarga ko‘rsatadigan davlat xizmatini odatda, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash va politsiya xizmati, shuningdek, ma’lum bir guvohnoma, ma’lumotnoma, litsenziya kabilarni berish xizmatini nazarda tutsa, ikkinchi holat biz o‘rganayotgan professional davlat xizmatini bildiradi[8]. Bu so‘z rus tiliga “государственная услуга”[9] tarzida tarjima qilinadi. Ya’ni rus tiliga tarjima qilishda uning birinchi ma’nosi qo‘llaniladi. O‘zbek tiliga tarjima qilinganda esa “Public service” tushunchasi professional davlat xizmatini nazarda tutmoqda. Ya’ni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Nizomida uning ingliz tilidagi nomlanishi “Agency for

[8] George Boyne. What is public service improvement? // Public administration. – №. 2 (81), 2003. – P. 211-227.
[9] Izoh: Davlatning fuqarolarga ko‘rsatadigan davlat xizmati.

the Development of Public Service” tarzida qo‘llanilmoqda[10]. Siyosatshunos K.Dauding “Civil service” tushunchasi Qurolli kuchlar, sudyalar va saylangan siyosatchilardan tashqari, davlat organlaridagi ma’muriy xodimlarni nazarda tutishini qayd etadi[11]. Ushbu so‘z rus va o‘zbek tiliga asl mohiyatini saqlab qolgan holda “государственная гражданская служба” va “davlat fuqarolik xizmati” tarzida tarjima qilinadi.

Siyosiy fanlar doktori professor B.Omonov o‘z tadqiqotlarida “Davlat fuqarolik xizmati – davlat organlari va tashkilotlarida ommaviy manfatlar yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining haq to‘lanadigan kasbi faoliyati”[12]dir deb tarif bergan.

Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatida davlat lavozimini egallagan, davlat boshqaruvi organlarida haq evaziga faoliyat yuritadigan hamda uning funksiya va vazifalarini davlat nomidan bajarayotgan shaxs. Shuning uchun, zamonaviy davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati aynan davlat, jamiyat va xalqqa munosib xizmat qilishga qaratilishi lozim.

Davlat boshqaruvi, davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmatchilari siyosiy madaniyatining shakllanishi nuqtai nazaridan qaraganda mamlakatimiz tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Zero, azal-azaldan G‘arb individualizmidan farqli ravishda “O‘rta Osiyo sharoitida jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi... xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz... Sharq xalqlari va yurtimiz ahliga mansub shunday belgi alomatlar haqida gapirganda, ularning tarixiy-ijtimoiy zaminiga alohida e’tibor qaratish lozim”[13]. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida davlat va jamiyat boshqaruvi eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik o‘rtalarida shakllanganligi kuzatilishini hisobga olsak[14], xalqimiz davlat xizmati, boshqaruv madaniyati va faoliyati masalasida juda katta tarix va tajribaga egaligi oydinlashadi[15].

Davlat xizmati davlat boshqaruvining muhim elementi bo‘lib, professional kadrlar – davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat xizmati tushunchasi XIX-asrdan Buyuk Britaniyada vujudga kelgan bo‘lsa-da, mohiyatan eramizdan oldingi davrlarda Qadimgi Sharqda shakllana boshlagan. Davlat xizmatini kadrlar bilan ta’minlashda ularga qo‘yiladigan talablar milliy-tarixiy manbalar, xususan, “Avesto”, shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiyning asarlarida mavjud bo‘lib, ularning aksariyati bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

---

[10] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4472-сон қарори. URL: https://lex.uz/uz/docs/4552053.

[11] Keith Dowding. The civil service. – Routledge, 2005. – P.214.

[12] Davlat fuqarolik xizmati [Matn]: o‘quv qo‘llanma/ B.Omonov. Toshkent, “Dulbarjin” NMIU, 2026. — B. 214.

[13] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – T.: O‘zbekiston, 2024. –B. 512.

[14] Бичурин Н.Я. Собрание сведение о народах, обитавших в Средней Азии в древные времена. В трех частях. 2-часть. – Алма Ата: ТОО Жалын Басмасы, 1998. – С. 350.

[15] Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Т.: «Akademiya», 2006. – B. 13.

“Davlat fuqarolik xizmati” tushunchasiga olimlar tomonidan xilma-xil ta’riflar berilib, bu ta’riflar uning qaysidir xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu borada olimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar asosida nazariyalar va davlatlarning o‘ziga xos tajribalari shakllangan. O‘rganishlar natijasida O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini tasniflash barcha davlat xizmatchilarini qamrab olmayapti, degan xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil, 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[16]gi PF-95-sonli Farmoni bilan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri qabul qilindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasi shuni anglatadiki, davlat siyosatining pirovard maqsadi – bu islohotlar natijasida har bir mahallada, har bir xonadonda va har bir fuqaro hayotida ijobiy o‘zgarishlar sezilishi, ularning farovonligi va hayotiy orzu-umidlarining ushalishi, natijada esa, xalqning davlatdan roziligi va uning siyosatini qo‘llab-quvvatlashida aks etishidan iborat.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son Farmoniga muvofiq, respublikamizning har bir mahallasida hokim yordamchilari lavozimi tashkil qilindi[17]. Qonunda “Davlat siyosatini mahallagacha tushirish, aholi bandligini ta’minlash, ularning daromadini ko‘paytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, shu orqali kambag‘allikni qisqartirish” bosh maqsad qilib olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti: “Dunyoda bunday tajriba ham, kitob ham yo‘q. Buning uchun avvalo fidoyi bo‘lish, xalqni sevish kerak. Bu lavozimda ishlaydiganlar mahallada islohotlar poydevori bo‘ladi. Ular tadbirkorlikni rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiradi. Bu juda katta mas’uliyat va sharaf”[18]li kasb ekanligini ta’kidlaganlar.

2022-yilning Yanvar oyidan Respublikamizda yangi lavozim egalari 9-ming 309-nafar hokim yordamchilari ish boshladi.

Hokim yordamchisi bu – har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi lavozimiga tayinlangan shaxs[19].

Shunday qilib, mamlakatimiz davlat boshqaruvida 2016-yilgacha, asosan, davlat organlari va ularni faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni

---

[16] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат фуқаролик хизматини янги ёндашувлар асосида ташкил этиш ҳамда профессионал ва натижадорликка йўналтирилган давлат хизматчилари корпусини шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-95-сонли Фармони, URL: https://lex.uz/docs/7587464.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-sonli Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/-5758437.

[18] Toshkent shahri va tumanlar hokimlari, sektor rahbarlari, mahalla raislari ishtirokida yig‘ilish. 2021-yil 23-noyabr.

[19] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 72-son Qarori. URL: https://lex.uz/docs/-5863706.

takomillashtirishga e’tibor qaratilgan bo‘lsada, professional davlat xizmatini shakllantirish masalasiga sust qaraldi. 2017-yildan boshlab esa davlat kadrlar siyosati yangi bosqichga kirdi. Endilikda davlat xizmatini alohida kasbga aylantirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining professional korpusini yaratishga jiddiy kirishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil, 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[20]gi PF-95-sonli Farmoni bilan Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri tasdiqlandi. Reyestrning qabul qilinishi davlat boshqaruvi tizimida bir qator muhim vazifalarni hal etishga xizmat qildi. Avvalo, u davlat xizmatidagi lavozimlarni yagona tizim asosida tartibga soladi, turli idoralar o‘rtasida lavozim nomlari va funksiyalarining takrorlanishini oldini oladi. Shuningdek, reyestr kadrlar siyosatini samarali yuritish, ya’ni xodimlarni tanlash, joylashtirish, xizmat bo‘yicha o‘sishini rejalashtirish va baholash jarayonlarini soddalashtiradi.

Bizningcha, davlat fuqarolik xizmati tizimini isloh qilishning yana bir muhim vazifalaridan biri bu – mansabdor shaxsning fuqarolik hamda davlat fuqarolik xizmatchisi sifatidagi siyosiy-huquqiy maqomini uyg‘unlashtirishdan iborat bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, davlat va uning xodimlari manfaatlarining muvozanatini saqlash davlat fuqarolik xizmatini amalga oshirishga ta’sir qiluvchi shartlardan biridir.

Dissertatsiyaning **“Hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini yuksaltirishning tashkiliy va tarkibiy qismlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida hokim yordamchilari institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, ularning vazifa va funksiyalari, siyosiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar, siyosiy madaniyatning asosiy komponentlari masalan, siyosiy bilim, qadriyatlar, normalar, xulq-atvor va ularning hokim yordamchilari faoliyatidagi o‘rni. Hokim yordamchilarining siyosiy madaniyatini oshirishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa institutlar bilan o‘zaro aloqalari. O‘zbekiston sharoitida hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini yuksaltirishning o‘ziga xos jihatlari, mavjud muammolar va ularni hal qilishga qaratilgan tashkiliy-tarkibiy mexanizmlar va xorijiy tajriba o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining birinchi maqsadi mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish deb belgilandi[21]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor

[20] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат фуқаролик хизматини янги ёндашувлар асосида ташкил этиш ҳамда профессионал ва натижадорликка йўналтирилган давлат хизматчилари корпусини шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-95-сонли Фармони. URL: https://lex.uz/docs/7587464.

[21] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. URL: https://lex.uz/docs/5841063.

yo‘nalishining dastlabki maqsadida ham mahallani jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish nazarda tutiladi[22].

Ana shundan kelib chiqib, islohotlar sharoitida mahallalarda davlat xizmatini samarali tashkil etish masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda ayrim mutaxassislar tomonidan ham mahallani davlat tuzilmasiga aylantirish borasida takliflar bildirilmoqda. Jumladan, huquqshunos Sh.Asadov fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini xalq bilan muloqot va ular manfaatlarini ta’minlaydigan birlamchi bo‘g‘in sifatida izohlab, ularni eng quyi tizimda davlat boshqaruvining ajralmas bo‘g‘iniga to‘la-to‘kis aylantirish, ya’ni davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi mahalliy hokimiyat ommaviy-siyosiy hokimiyat organiga aylantirish lozimligini taklif etadi[23]. Fuqarolar islohotlarni mahalladan turib his qilishlari lozimligi, ularga mahallaning o‘zida davlat xizmatlarini ko‘rsatish nazarda tutilayotgan bir sharoitda ushbu taklif yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada huquqshunos X.Xayitov mahalliy boshqaruv organlarining vakolat hamda mas’uliyatini oshirish va kelgusida davlat funksiyalarining katta qismini markazdan hududlarga o‘tkazish zarurligini qayd etadi[24].

Professor A.Bekmurodov “Mahallabay” ishlash tizimi haqida so‘z yuritar ekan: “Ushbu tizimning yo‘lga qo‘yilishi – yillar davomida davlat siyosati ustuvorliklarida hech ko‘zga tashlanmayotgan qishloq, mahalla va ovullarda aholining ehtiyojlarini o‘rganish, tahlil qilish va ularning yechimi mexanizmi sifatida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish mana shunday ijtimoiy adolatning yuzaga chiqishi hisoblanadi”[25], deya haqli fikrlarni bildiradi.

Demak, Davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida hokim yordamchisi qanday faoliyat bilan shug‘ullanishi kerak degan savol tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son Farmoniga muvofiq, Respublikamizning har bir mahallasida 2022-yilning Yanvar oyidan 9-ming 309-nafar hokim yordamchilari ish boshladi. Hokim yordamchisi – har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisi lavozimiga tayinlangan shaxs[26].

Ushbu lavozimning mazmuni, qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, mahallani, har bir xonadonning, shuningdek, har bir fuqaroning yashash sharoitini uyma-uy yurish orqali o‘rganish, hududning o‘sish nuqtalarini aniqlash, mahallada muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar va mahalla faollari bilan hamkorlikda ishlash va doimiy fikr almashish vazifalarni to‘g‘ri belgilash hisoblanadi. Shuningdek, o‘z tadbirkorligini

---

[22] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-158-сон Фармони. URL: https://lex.uz/docs/6600413.

[23]Асадов Ш.Ғ. Ўзбекистон Республикасида маҳалла институтини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари. // Жамият ва бошқарув. № 1, 2021. – В.168.

[24] Хайитов Х.С. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – халқпарвар давлат барпо этишнинг ишончли асоси. // Қонунчилик муаммолари ахборотномаси. № 4, 2021. – В.20-23.

[25] Бекмуродов А.Ш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг стратегик ташаббуси: “Маҳаллабай” ишлаш тизими маҳаллаларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг самарали механизми сифатида. // Жамият ва бошқарув. № 1, – 2021. – Б. 36-43.

[26] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-sonli Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/-5758437.

boshlagan, kengaytirmoqchi bo‘lganlarga ko‘maklashish, bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmagan fuqarolarni o‘quv kurslarida o‘qitish, ishsiz aholini ish bilan band qilib, oilalar daromadini ko‘tarish, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar olishga ko‘maklashish, mahallaning o‘sish nuqtasidan kelib chiqib, ularni lider tadbirkorlarga biriktirish, boshqa hokim yordamchilari bilan tajriba almashish, mahallada bo‘sh bino va yer maydonlarini aniqlash kabilar hokim yordamchilarining asosiy vazifalariga kiradi.

Avvalo, qaysi toifada bo‘lmasin, davlat xizmatchisi o‘zining yetakchi, yo‘lboshchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, rahbar, sardor, boshliq, amaldor ekanligini, zimmasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ham yetakchi sifatida obro‘-e’tibor orttirish mas’uliyati borligini chuqur tushunib yetishi lozim. Chunki rahbarga fuqarolar davlat boshqaruv tizimining vakili sifatida baho beradilar va u orqali boshqaruv tizimini baholaydilar. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo‘ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ... Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo‘g‘indagi rahbarlar u vazir yoki hokim bo‘ladimi, idora yoki tashkilot boshlig‘i bo‘ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o‘rnak va namuna bo‘lishi zarur[27]” deb ta’kidlagandi. Mana shu jarayonda davlat xizmatchilarining siyosiy ongi va siyosiy madaniyati yuqori bo‘ladigan bo‘lsa unday holda xalq davlat vakillariga nisbatan ishonchi yana ortadi va ularni qo‘llab quvvatlaydi.

Xususan, olib borilayotgan islohotlarni idrok qila olish, siyosiy ong va siyosiy madaniyatni talab qiladi. Siyosiy ong va siyosiy madaniyatga ega shaxslargina voqelikni bilish, anglash, baho berish va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Siyosiy qarashlariga ega davlat fuqarolik xizmatchilari o‘zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat huquq va erkinliklari mavjudligini, balki burch va majburiyatlari borligini ham unutmasligi lozim. Sababi, davlat xizmatchilarining o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini bilishi va uni hayotda qo‘llay olishi hamda qonunlarga og‘ishmay rioya etishi davlatning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda siyosiy ong nima ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz.

Siyosiy ong bu – siyosiy jarayonlar haqidagi siyosiy tasavvurlar, qarashlar, ko‘nikmalar va bilimlar majmui tushuniladi. Siyosiy jarayonlar birinchi navbatda davlat hokimiyati, uning siyosiy boshqaruvdagi faoliyati va unda kechadigan siyosiy munosabatlar bo‘lib, u bir maromda rivojlanishi, turg‘un holatga tushishi yoki yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin. Ularning qanday kechishi davlat

[27] URL: http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/itein/12316-l ва http://uza.uz/oz/ society/ra-bar-yuksak-m anaviyatli-ar-bir-ishda-barchaga-ibrat-b-lish-29-11-2017.

hokimiyatining siyosiy boshqaruvni qaysi darajada tashkil etishiga bog‘liq holda kechadi.

Keltirilgan fikrlar va ta’riflarda siyosiy madaniyatning o‘ziga xos turli jihatlari o‘z ifodasini topgan. Shu jihatlarni inobatga olib ushbu tushunchaga izoh berib o‘tishga harakat qilamiz.

Birinchidan, siyosiy madaniyat jamiyat ma’naviyatining bir bo‘lagi;

Ikkinchidan, davlat hokimiyati faoliyatida siyosiy madaniyatning amal qilishi, siyosiy jarayonlarning ijobiy yo‘nalishda ketayotganligi belgisi;

Uchinchidan, siyosiy madaniyat siyosiy jarayonlarda ishtirok qiladigan fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarni amaliy faoliyatda amal qilishini tashkil qila bilish ko‘rsatkichi.

Demak, siyosiy madaniyat shaxsning siyosiy boshqaruvda majburiy buyruqbozlikka emas, balki siyosiy vazminlik, adolatlilik, o‘zaro ishonch tamoyillarida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki siyosiy madaniyat davlat fuqarolik xizmatchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirilishni bir so‘z bilan aytganda kasbiy madaniyatini yuksaltirishni talab qiladi.

Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlash sohasini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasidan ham foydalanish lozim. Bu borada, Singapur, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya, Germaniyaning bosib o‘tgan yo‘li tahlil qilinib, ularning ayrim tajribalarini amaliyotda qo‘llash maqsadga muvofiq. Jumladan, xizmatchilarga xususiy sektordan ko‘proq bo‘lgan yuqori maosh to‘lashni joriy qilish Singapur, ochiq tanlovlarda mantiqiy fikrlashni aniqlashga xizmat qiluvchi yozma imtihonlarni joriy qilish Buyuk Britaniya, asosan, amaliyotga asoslangan boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini rivojlantirish Fransiya, davlat kadrlar siyosati bo‘yicha vakolatli organga davlat fuqarolik xizmatchilarini sug‘urtasi va salomatligi javobgarlik vazifalarini yuklash AQSH, ish stajining aniq muddati va malaka oshirish natijalariga ko‘ra, lavozim bo‘yicha o‘sishni ta’minlovchi qat’iy karyerasi tizimga to‘liq o‘tish Yaponiya, davlat fuqarolik xizmati uchun zarur mutaxassisliklarni rivojlantirishga e’tibor qaratish Germaniya kabi tajribalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqotning **“Hokim yordamchilari siyosiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida hokim yordamchisi tomonidan o‘ziga yuklatilgan vazifalarini amalga oshirishi mahallalarni har taraflama rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, daromadini oshirish ishiga salmoqli hissa qo‘shishi, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatdan og‘ishmay xalqni o‘z ortidan ergashtira olishdan iborat. Xususan, Amir Temur ham o‘z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarni g‘oyat qadrlagan: “Tajribamda ko‘rilganki, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishilarni o‘z ortidan ergashtira oladi”[28] degan.

Shu nuqtai nazardan, hokim yordamchilari mamlakatimizda jadal suratlarda barpo etilayotgan insonparvar davlatda insonga e’tibor masalasini misli ko‘rilmagan

[28] Амир Темур Кўрагон. Темур тузуклари. –Тошкент: Фан ва технология, 2014. Б.196.

yuksakliklarga olib chiqishi hamda bugun xalqimiz va har bir fuqaroni baxtli, saodatli etishdek yuksak maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Shu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlashimiz lozimki, bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida mahalliy boshqaruv tizimida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Hokim yordamchilari faoliyatini takomillashtirish va ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirish bu islohotlarning muhim qismidir.

Hokim yordamchilarining siyosiy madaniyatiga qo‘yiladigan talablar aniq mezonlar ustiga qurilmas ekan, boshqaruvga intilishning noaxloqiy, xufiyona ko‘rinishlari saqlanib qolaveradi, davlat tizimi asoslariga katta zarar yetkazuvchi salbiy illatlar kuchayib boraveradi. Zero, demokratiya sharoitida fuqarolar davlat fuqarolik xizmatchilaridan huquqiy mezonlar asosida hisobot talab qilishadi.

Bizningcha, hokim yordamchilari faoliyatida salbiy holatlarni oldini olish uchun ularda siyosiy madaniyatini yuksaltirish – samarali boshqaruv va xalq bilan ochiq muloqotni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat xizmatchilarining siyosiy madaniyati yuqori bo‘lishi hokimiyatning shaffofligi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada quyidagi siyosiy madaniyatni yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanishi lozim:

1. Siyosiy va huquqiy bilimlarni oshirish. Bunda hokim yordamchilari uchun muntazam siyosiy-ma’rifiy seminarlar va treninglar tashkil etish, davlat boshqaruvi, konstitutsiyaviy huquq, demokratik tamoyillar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini o‘tkazish, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida milliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Jamoatchilik bilan muloqotni rivojlantirish. Aholi bilan ochiq muloqotlarni tashkil etish va joylarda fuqarolarning muammolarini aniqlash, xalq va hokimiyat o‘rtasida ishonchni mustahkamlash uchun jamoatchilik eshituvlarini tashkil etishi, fuqarolarning talab va takliflarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qilishi lozim.

3. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. Elektron hukumat tizimini rivojlantirish va murojaatlar bilan ishlash jarayonini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik bilan doimiy muloqot o‘rnatishi, axborot xavfsizligini ta’minlash va feyk ma’lumotlarga qarshi immunitetni shakllantirishi kerak.

4. Ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash. Hokim yordamchilarining faoliyati bo‘yicha jamoatchilikka muntazam hisobot berib borishi, ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirishi lozim.

Agentlik tomonidan “mahallabay” ishlash tizimi bo‘yicha mahalladagi hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda xotin-qizlar faoli faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha ham amaliy ishlar olib borilmoqda.

